

**KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ,
MAMLAKATIMIZNI YANADA TARAQQIY ETTIRISHNING
MUSTAHKAM POYDEVORIDIR**

O‘rinboyev Omadjon Odiljon o‘g‘li

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi,

Sud-huquqiy faoliyati yo‘nalishi 23/22-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada konstitutsiyamizning tinch hayotimiz va erkin yasham tarzimizda tutgan o‘rni va roli haqida bir qancha fikrlar keltirib o‘tdim. Bir mamkatatning tinchligi va erkinligining ramzi bu u o‘sha davlat konstitutsiyasidir shubhasiz. Shunday ekan faqat va faqat mamalakatimizning yanada taraqqiy etishi va rivoji uchun hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: kontitutsiya, qonun, qonunning insonlar hayotida tutgan roli, modda.

**THE CONSTITUTION IS A SOLID FOUNDATION FOR OUR FREE AND
PROSPEROUS LIFE AND FURTHER DEVELOPMENT OF OUR
COUNTRY**

Abstract.

In this article, I have mentioned several points about the place and role of our constitution in our peaceful life and free way of life. The symbol of the peace and freedom of a country is undoubtedly the constitution of that country. Therefore, only and only the further progress and development of our country contributes to

Keywords: constitution, law, role of law in human life, article..

**КОНСТИТУЦИЯ – ПРОЧНАЯ ОСНОВА НАШЕЙ СВОБОДНОЙ И
ПРОЦВЕТАЮЩЕЙ ЖИЗНИ И ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ НАШЕЙ
СТРАНЫ**

Абстрактный

В этой статье я упомянул несколько моментов о месте и роли нашей конституции в нашей мирной жизни и свободном образе жизни. Символом мира и свободы страны, несомненно, является конституция этой



страны. Поэтому только и только дальнейшему прогрессу и развитию нашей страны способствует.

Ключевые слова: конституция, закон, роль права в жизни человека, статья.

KIRISH

Ma'lumki, har bir davlatning shakllanishida Konstitutsiyaning o'rni beqiyosdir. Bizning Konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan kun bo'lib, har yili mazkur sana bayram sifatida keng nishonlanadi. Bosh Qomusimiz millatimiz ruhiga, hayot tarzi va urf-odatlariga mos keladigan imon-e'tiqod, insof, diyonat, mehr-oqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi eng ezgu fazilatlarni o'z ichiga olgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy hujjatdir. Yaratilayotgan boshqa qonunlar konstitutsiyaviy me'yorlarga asoslanadi, me'yoriy hujjatlar ham shu asosda ishlab chiqiladi. Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar belgilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari, jumladan, yurtimiz musulmonlari Asosiy Qomusimizda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklardan keng foydalanmoqdalar. Xususan, ushbu hujjatning yangi qabul qilingan tahririda vijdon hamda e'tiqod erkinligi alohida kafolatlab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deyilgan. Yurtimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Bosh Qomusimiz belgilab bergan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar. Ular ertangi kunga komil ishonch bilan mehnat qilib, yagona Vatan ravnaqiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Unda nafaqat xalqchil tamoyillarga, balki ming yillar davomida rivojlanib kelgan milliy ma'naviyatimiz asoslariga ham tayanadi. Zero, har bir millat o'zining ruhiy-e'tiqodiy ildizlaridan uzilsa, inqirozga uchrashi tabiiydir. Allohga behisob shukrlar bo'lsinki, siz biz go'zal va hur diyorda tinchlik bulog'idan qonib umr guzaronlik qilib kelmoqdamiz.



Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o‘tovchi Konstitutsiya – nafaqat davlatchilikning muhim ramzi, balki har bir xalqning milliy g‘ururi va o‘z-o‘zini hurmat qilishining huquqiy timsoli hamdir.

Shu bois mamlakatimizda har yili dekabr oyi boshida Konstitutsiya dekadasini nishonlash odat tusiga kirgan.

Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi, barcha jabhalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o‘sib bormoqda.

Konstitutsiya — davlatni davlat, millatni millat qiladigan muhim siyosiy hujjat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko‘p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasidir.

Asosiy qonunimiz yaratilishining murakkab va ayni chog‘da sharafli solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Shu boisdan, o‘tgan davr ichida mamlakatimizdagi tub islohot va o‘zgarishlarning barchasi Bosh qomusimiz asosida amalga oshirilmoqda.

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo‘lgan samarali va barqaror tizim shakllanmoqda. Asosiy qonunimizda ham buyuk ne‘matlar orasida eng ulug‘i — “inson uchun” degan g‘oya ilgari surilib, uni ulug‘lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o‘z aksini topgan.

Binobarin, inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan yurtdagina yuksalish bo‘ladi, bunday davlat fuqarosi har tomonlama barkamol bo‘lib, vatan uchun, xalq uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘ladi. Eng muhimi, inson huquqlari ta‘minlangan jamiyatda



raqobat muhiti paydo bo'ladi, ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar sur'atlari jaddalashadi.

Davlat o'z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan e'tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topganligini anglatsa, o'z konstitutsiyasiga ega bo'lishi esa, mustaqillikning huquqiy tamal toshi, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiya — davlatni davlat, millatni millat qiladigan muhim siyosiy hujjat hisoblanib, shu bilan birga jamiyat tayanchi va yurt taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlat mustaqilligining yorqin ramzi, xalqning xohish-irodasining qonuniy ifodasi desak bo'adi.

Mana shu o'tgan davr davomida mamlakatimizdagi tub islohot va o'zgarishlarning tag zamirida xalqimiz hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan o'zgarishlar bilan takomillashib borayotgan Konstitutsiyamiz dastur-ul amal bo'lib kelayotganligi ayni haqiqatdir.

Bosh qomusimizda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid bo'lishi mumkin emasligi qat'iy ko'rsatib o'tilgan. Darhaqiqat, qonunlar ustuvor bo'lgan davlatda barqarorlik bo'ladi, fuqarolarning huquqlari to'laroq ta'minlanadi.

Bizning mamlakatimizda ham bosh qomusimizning ahamiyati va tutgan o'rni nohoyatda yuksakdir. Barchaga ma'lumki dunyo bo'lab urushlar ko'payotgan bir pallada bizning mamlakatimizda tinchlik hukm surmoqda shukrlar bo'lsin. Buning boisi davlat qomusining mukammal tuzilganligi va barchaning unga birdek amala qilishidir deb o'ylayman.

Konstitutsiya— davlatimizning bosh qonuni, huquq va erkinliklarimiz kafolati, dunyoda tenglar ichida teng, davlatchilik tarixiga ega xalq, suveren davlat ekanimizning shahodati hamdir.

XULOSA

Xulosa shuki, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o'z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Zotan, unda mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsad va vazifalari, xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari va huquq ustuvorligi hamda demokratiya tamoyillari o'z ifodasini topgan bo'ladi.



Xulosa o'rnida, yurtimizda yashab, faoliyat ko'rsatayotgan har bir ongli inson O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni – Konstitutsiyamizning barcha moddalarini mukammal bilishi va hayotga to'g'ri tatbiq qilmog'i, shuningdek, o'ziga yuklatilgan burchlarini sezib, to'laqonli ravishda bajarishi lozim bo'ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirgan kishilar ham davrimiz, ham bebaho milliy qadriyatlarimiz me'yorlariga amal qilgan bo'ladi.

Davlatda konstitutsiyaning joriy etilganligi va unga barchaning birdek amal qilishi bu davlatning farovonligi va tinchligini ta'minlaydi. Buning uchun esa har bir shaxs huquqiy tarbiyalangan bo'lishi va huquqiy ong va bilimlarga ega bo'lishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-4947-son. 2017 yil 7 fevral. Manba: lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. -53 b. [Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan]. T.: O'zbekiston, 2016. -53 p.
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iy davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Tom 1.- T.: O'zbekiston, 2017.-233-295 b. [Mirziyoyev Sh. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader.// We will continue our path of national development and take it to a new level]. Volume 1.- T.: Uzbekistan, 2017.-233-295 p.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 -484 b. [4. Mirziyoyev Sh.M. We will build our great future with our brave and noble people]. T.: Uzbekistan, 2017 -484 p.5.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. [Mirziyoyev Sh.M. The rule of law and the protection of human interests are the key to the development of the country and the well-being of the people]. T.: 2017.

